

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA
YAKUNIY HISOBOT



**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA
TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610400 – Dasturiy injiniring
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610400 – Dasturiy injiniring

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260007
Xulosa raqami	506-son
Xulosa sanasi	2026-yil 12-may
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Navoiy viloyati, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76V-uy; guvohnoma № 173, 07.07.1995-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Dasturiy injiniring
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610400
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	Djumanov Jamoljon Xudaykulovich – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti; ekspert komissiyasi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 173 / 07.07.1995
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610400 – Dasturiy injiniring
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610400 – Software Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610400 – Программная инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis-dasturchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	160 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Navoiy viloyati, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76V-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoiq / muvofoiq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoiq / qisman muvofoiq / muvofoiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Qisman muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (muvofiq). “Dasturiy injiniring” bakalavr ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul kafedra to'liq shakllangan, vakolat va funksiyalari aniq belgilangan. Besh yillik istiqbolli reja barcha yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, unda xavf tahlili ham aks ettirilgan. Monitoring mexanizmlari va manfaatdor tomonlarning ishtiroki tartibi belgilangan. Biroq sifatni ichki ta'minlash bo'yicha bir indikator — ichki hujjatlarning O'zbekiston qonunchiligiga to'liq moslashtirilmasligi va jamoatchilik uchun ochiqligi — sababli 1.3-mezon qisman muvofiq deb baholandi. Yo'nalish umumiy holda muvofiq deb topildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (muvofiq). “Dasturiy injiniring” bakalavr ta'lim dasturi belgilangan tartibda — kafedra va fakultet kengashlarida muhokama qilinib, rasmiy tasdiqlash jarayonidan o'tgan holda — ishlab chiqilgan. Dasturning maqsadlari, o'quv natijalari va kompetensiyalari Milliy malaka ramkasi (6-daraja), davlat ta'lim standarti va kasbiy standartlarga muvofiq belgilangan. Manfaatdor tomonlar ishtiroki ta'minlangan, fanlar o'rtasida izchillik saqlangan, dastur “Raqamli O'zbekiston” strategiyasi va mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilgan. Barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (muvofiq). Ishchi o'quv reja va fan dasturlari qonunchilik talablariga asosanib ishlab chiqilgan, o'quv jarayoni o'quv natijalariga yo'naltirilgan va doimiy baholab boriladi. Baholash mezonlari aniq, shaffof va adolatli belgilangan xalqaro ekspert tomonidan ham alohida ta'kidlangan. Talabalarining fikr-mulohazalarini yig'ish tartibi hamda akademik halollik qoidalari belgilangan. Barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi (muvofiq). Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari ochiq va shaffof belgilangan; qabul parametrlari muassasaning resurslari —

auditoriyalar, laboratoriyalar, kadrlar tarkibi — va mehnat bozori tahlili asosida shakllantirilgan. Talabalar harakati (ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, chetlashtirish va qayta tiklash) bo'yicha ichki hujjatlar normativ talablarga mos hamda talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi (muvofiq). Professor-o'qituvchilar soni va tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan, boshqaruv va yordamchi xodimlar soni me'yorlarga muvofiq. O'quv rejadagi fanlarga mos kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash rejasi mavjud; asosiy shtatdagi ilmiy daraja va unvonga ega o'qituvchilar ulushi bakalavriat uchun belgilangan me'yorlarni qondiradi. Kadrlarni qayta tayyorlash, malaka oshirish hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi belgilangan. Barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (muvofiq). Kompyuter laboratoriyalari, dasturlash muhitlari va zarur texnik baza joyida bevosita ko'rib chiqildi hamda dasturning talabalar kontingentini qamrab olishi uchun yetarliligi tasdiqlandi. Axborot-resurs markazi, raqamli ta'lim muhiti (LMS, Wi-Fi, onlayn kurslar) va axborot xavfsizligi mexanizmlari mavjud. Ayrim inventar dalolatnomalari va sanitariya-gigiena me'yorlariga muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish tavsiya etildi. Barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ekspert komissiyasi xulosasida akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmagan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Sifatni ichki ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar O'zbekiston qonunchiligiga to'liq moslashtirilmagan va ularning jamoatchilik uchun ochiqligi ta'minlanmagan (1.3-mezon qisman muvofiq).
- ✓ Sillabuslar, o'quv reja va o'quv adabiyotlar ro'yxatini to'ldirish hamda to'liq bibliografik ma'lumotlar bilan ta'minlash zarur.

- ✓ Laboratoriyalar, sanitariya normalari va xavfsizlik qoidalariga muvofiqlikni tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar to'liq rasmiylashtirilmagan; o'qituvchilar malaka oshirish dasturi alohida hujjat ko'rinishida ishlab chiqilmagan.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Sifatni ichki ta'minlash bo'yicha hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga to'liq moslashtirish va ularni jamoatchilikka ochiq e'lon qilish mexanizmini rasmiylashtirish tavsiya etiladi.
- ✓ Sillabuslar va o'quv adabiyotlar ro'yxatini zamonaviy manbalar bilan yangilash, to'liq bibliografik ma'lumotlar bilan ta'minlash tavsiya etiladi.
- ✓ Laboratoriyalar va xavfsizlik normalari bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish hamda o'qituvchilar malaka oshirish dasturini aniq hujjat ko'rinishida ishlab chiqish tavsiya etiladi.
- ✓ Dastur mazmunida Software Engineering yo'nalishining keng qamrovliligini (axborot xavfsizligi, web va bulutli texnologiyalar) yanada to'liq aks ettirish hamda xalqaro akkreditatsiya jarayoni uchun yo'l xaritasini tuzish tavsiya etiladi.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Yakuniy xulosa "Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti" davlat muassasasining 60610400 – Dasturiy injiniring bakalavr ta'lim dasturi bo'yicha tashqi baholash ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqib o'tkazilgan tekshiruv asosida shakllantirildi. Baholash davomida oltita yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar va indikatorlar ko'rib chiqildi, hujjatlar tahlil qilindi hamda kafedra rahbariyati va ma'muriyat vakillari bilan muloqotlar o'tkazildi.


Joyida tekshiruv natijalariga ko'ra, ta'lim dasturi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga javob berishi aniqlandi. Barcha oltita yo'nalish muvofiq deb baholandi; mezonlar orasida faqat bittasi (1.3) qisman muvofiq deb topildi.

Aniqlangan kamchiliklar akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmaydi va ular sifatni ichki ta'minlash hujjatlarini milliy qonunchilikka moslashtirish hamda o'quv-metodik ta'minotni rasmiylashtirish bo'yicha tavsiyalar asosida bartaraf etilishi mumkin.

Yuqoridagi barcha dalillarga tayangan holda, 60610400 – Dasturiy injiniring bakalavr ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi talablariga **muvofiq deb baholandi**.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	2026-yil 5-iyun
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

